



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UO'K: 37.013.2.37.01

MULTIMODAL MATNLARNING DALILLARGA ASOSLANGAN O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti, pedagogik tadqiqotchi

E-mail: dgofurova44@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8712-2025

Annotatsiya. Mazkur maqolada multimodal matnlarning o'quvchilarda dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda matn, jadval, diagramma, grafik, xarita va infografika kabi axborot shakllarining o'zaro integratsiyasi o'quvchilarning dalillarni aniqlash, taqqoslash, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ta'siri yoritilgan. Multimodal topshiriqlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligi tajriba natijalari orqali asoslangan. Olingan natijalar multimodal yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va o'z fikrini dalillar bilan asoslash kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: multimodal matn, o'qish savodxonligi, dalillarga asoslangan o'qish, multimodal savodxonlik, tanqidiy fikrlash, dalil, axborot, infografika, diagramma, o'qib tushunish, ta'lim texnologiyalari.

ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ МУЛЬТИМОДАЛЬНЫХ ТЕКСТОВ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ, ОСНОВАННОГО НА ФАКТАХ

Гофурова Дилшодахон Тохиржон кизи

Магистрант, Ферганский государственный университет,

исследователь в области образования

E-mail: dgofurova44@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8712-2025

Аннотация. В данной статье анализируется дидактический потенциал мультимодальных текстов в развитии у учащихся навыков чтения, основанного на фактах. В исследовании подчеркивается влияние интеграции информационных форм, таких как текст, таблицы, диаграммы, графики, карты и инфографика, на навыки учащихся в выявлении, сравнении, оценке и формулировании выводов на основе фактов. Эффективность образовательного процесса, организованного вокруг мультимодальных заданий, основана на экспериментальных результатах. Полученные данные демонстрируют, что мультимодальный подход является

эффективным инструментом для развития у учащихся компетенций в критическом мышлении, анализе информации и обосновании своих мнений доказательствами.

Ключевые слова: мультимодальный текст, грамотность чтения, чтение на основе доказательств, мультимодальная грамотность, критическое мышление, доказательства, информация, инфографика, диаграммы, понимание прочитанного, образовательные технологии.

THE DIDACTIC POTENTIAL OF MULTIMODAL TEXTS IN DEVELOPING EVIDENCE-BASED READING SKILLS

Gofurova Dilshodakhon Tokhirjon kizi

Master's Student, Fergana State University, Researcher in Education

E-mail: dgofurova44@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8712-2025

Abstract. This article analyzes the didactic potential of multimodal texts in developing students' evidence-based reading skills. The study highlights the impact of integrating information forms, such as text, tables, diagrams, graphs, maps, and infographics, on students' skills in identifying, comparing, evaluating, and drawing conclusions based on facts. The effectiveness of the educational process organized around multimodal tasks is based on experimental results. The findings demonstrate that the multimodal approach is an effective tool for developing students' competencies in critical thinking, analyzing information, and substantiating their opinions with evidence.

Keywords: multimodal text, reading literacy, evidence-based reading, multimodal literacy, critical thinking, evidence, information, infographics, diagrams, reading comprehension, educational technologies.

KIRISH

Bugungi axborotlashgan jamiyatda o'quvchining o'qish savodxonligi faqat yozma matn mazmunini tushunish bilan chegaralanmaydi. Zamonaviy axborot muhitida inson matn bilan bir qatorda jadval, diagramma, grafik, xarita, infografika, fotosurat va raqamli media orqali taqdim etilgan ma'lumotlarni ham o'qishi, tahlil qilishi va o'zaro bog'lay olishi zarur. Shu sababli ta'lim jarayonida multimodal matnlardan foydalanish o'quvchilarning axborotni kompleks idrok etishi va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyasini shakllantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'qish savodxonligining yuqori darajasi o'quvchidan matnda berilgan axborotni shunchaki eslab qolishni emas, balki muallif fikrini dalillar asosida baholash, turli axborot manbalarini taqqoslash, ishonchli va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlash hamda mustaqil xulosa chiqarishni talab qiladi. Xalqaro baholash dasturlarida ham o'qilgan ma'lumotni talqin qilish, baholash va dalillar bilan asoslash muhim kompetensiyalar sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi multimodal matnlar vositasida o'quvchilarning dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi multimodal matnlar asosida tashkil etilgan topshiriqlarning o'quvchilarning dalillarni aniqlash, axborotlarni taqqoslash, dalil va xulosani bog'lash hamda o'z fikrini asoslash ko'nikmalariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Multimodal savodxonlik va o'qish jarayonini tadqiq etishda xorijiy olimlarning ishlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Kress va van Leeuwen multimodal kommunikatsiyani turli semiotik resurslarning birgalikdagi faoliyati sifatida talqin qilib, ma'no faqat yozma til orqali emas, balki vizual va boshqa belgilar tizimi yordamida ham shakllanishini asoslagan. Ularning yondashuvi multimodal matnlarni o'qishda o'quvchidan turli axborot kanallarini integratsiyalashni talab qilishini ko'rsatadi [1].

Jewitt multimodal savodxonlikni zamonaviy ta'lim sharoitida alohida ahamiyatga ega kompetensiya sifatida ko'rib, o'quvchilarning turli modal resurslardan foydalanish va ularni talqin qilish qobiliyatini ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi[2]. Uning tadqiqotlarida multimodal yondashuv o'quvchilarning kommunikativ va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan.

Serafini vizual savodxonlik va multimodal matnlarni o'qish masalasini tadqiq etib, zamonaviy o'quvchi matnni nafaqat lingvistik, balki vizual va grafik komponentlar orqali ham talqin qilishini ko'rsatadi. Muallif multimodal matnlarni tushunishda

o'quvchining kuzatish, bog'lash, izohlash va baholash strategiyalaridan foydalanishi muhimligini qayd etadi[3].

New London Group tomonidan ilgari surilgan "multiliteracies" konsepsiyasi esa savodxonlik tushunchasini kengaytirib, turli madaniy, lingvistik va multimodal shakllarda axborotni anglash va yaratish zarurligini asoslaydi[4]. Ushbu yondashuv zamonaviy ta'limda o'quvchilarning turli axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy asos yaratadi.

O'qish savodxonligi bo'yicha PISA tadqiqotlarida [5] ham o'quvchining turli manbalardan olingan axborotni integratsiyalashi, ma'lumotlarning ishonchliligini baholashi va dalillar asosida xulosa chiqarishi muhim ko'nikmalar sifatida belgilanadi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan o'qish savodxonligi konsepsiyasi o'quvchining matn tushunish bilan bir qatorda undan foydalanish, baholash va refleksiya qilish qobiliyatiga e'tibor qaratadi.

Rus olimlari orasida G.G.Granik va S.M.Bondarenko o'quvchilarda matnni anglash va mazmuniy qayta ishlash jarayonlarini tadqiq etib, o'qish jarayonida mazmuniy tahlil va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashning ahamiyatini ko'rsatgan[6]. Ularning ilmiy qarashlari matn mazmunini chuqur anglash va o'quvchining mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq.

O'zbek pedagogik tadqiqotlarida ham o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuv masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. R.H. Jorayev va S.T. Turg'unov [6-8] kabi tadqiqotchilarning ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlari multimodal ta'lim metodlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, multimodal matnlar o'quvchilarning axborotni turli shakllarda qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini

kengaytiradi. Biroq multimodal matnlarning aynan dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini tajriba asosida kompleks baholash masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot multimodal matnlar, dalilni aniqlash, axborotlarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish o'rtasidagi pedagogik bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Multimodal matnlarning dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning matnni tushunish, asosiy va ikkilamchi axborotni farqlash, matnda keltirilgan dalillarni aniqlash, dalil va xulosani o'zaro bog'lash, turli axborot manbalarini taqqoslash hamda o'z fikrini matn asosida asoslash ko'nikmalari baholandi. Tadqiqotda jami 120 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ularning 60 nafari tajriba guruhiga, 60 nafari nazorat guruhiga biriktirildi. Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich tayyorgarlik darajasi imkon qadar bir xil bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Tajriba jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda diagnostik test o'tkazilib, o'quvchilarning multimodal matnlarni o'qish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish bo'yicha dastlabki ko'rsatkichlari aniqlandi. Ikkinchi bosqichda tajriba guruhida multimodal matnlar asosida maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi qo'llanildi. Bunda yozma matnlar bilan bir qatorda diagramma, jadval, infografika, xarita, grafik, fotosurat va boshqa vizual axborot shakllaridan foydalanildi. Nazorat guruhida esa asosan an'anaviy matnlar va odatiy savol-javob hamda reproduktiv topshiriqlar asosidagi o'qish mashg'ulotlari davom ettirildi. Uchinchi bosqichda yakuniy diagnostika o'tkazilib, ikki guruh natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba davomida o'quvchilarga murakkab tuzilishga ega multimodal materiallar taqdim etildi. Masalan, ekologik muammolarga bag'ishlangan topshiriqda asosiy matn bilan birga atmosfera ifloslanishi bo'yicha diagramma va statistik jadval berildi.

O'quvchilardan matnda keltirilgan fikrni jadvaldagi raqamlar yordamida tasdiqlash yoki rad etish, qaysi dalil eng ishonchli ekanini aniqlash va yakuniy xulosani mustaqil shakllantirish talab qilindi. Boshqa topshiriqlarda tarixiy xarita, statistik ma'lumot va qisqa izohli matn o'zaro bog'langan holda berildi. Shu orqali o'quvchidan faqat matnni o'qish emas, balki turli modal kanallardan olingan axborotni birlashtirish talab qilindi.

Dastlabki diagnostika natijalarida tajriba guruhida o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 56,8 foizni, nazorat guruhida esa 57,4 foizni tashkil etdi. Farq atigi 0,6 foiz punkt bo'lib, tajriba boshlanishidan oldin ikki guruhning tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil bo'lganini ko'rsatdi. Tajriba yakunida tajriba guruhining o'rtacha natijasi 82,7 foizga, nazorat guruhiniki esa 65,3 foizga yetdi. Demak, tajriba guruhida o'sish 25,9 foiz punktni, nazorat guruhida esa 7,9 foiz punktni tashkil etdi. Tajriba guruhidagi o'sish nazorat guruhidagi o'sishdan 18,0 foiz punktga yuqori bo'ldi.

O'quvchilarning dalillarni aniqlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarida ham sezilarli o'zgarish kuzatildi. Dastlabki bosqichda tajriba guruhining 38,3 foizi matndagi asosiy dalillarni to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa, yakuniy baholashda bu ko'rsatkich 81,7 foizga yetdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 40,0 foizdan 59,2 foizgacha oshdi. Natijada tajriba guruhida mazkur ko'nikmaning o'sishi 43,4 foiz punktni, nazorat guruhida esa 19,2 foiz punktni tashkil qildi. Dalil va xulosani bog'lash ko'nikmasi bo'yicha dastlab tajriba guruhida to'g'ri javob berganlar ulushi 31,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida 75,0 foizga ko'tarildi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 33,3 foizdan 52,5 foizgacha o'zgardi. Bu natija multimodal matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar dalilning o'zi bilan undan kelib chiqadigan xulosa o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni yaxshiroq anglay boshlaganini ko'rsatadi. Turli modal axborot manbalarini taqqoslash ko'nikmasida ham ijobiy dinamika qayd etildi. Tajriba guruhida dastlab o'quvchilarning 35,0 foizi matn va grafikdagi ma'lumotlarni to'g'ri taqqoslay olgan bo'lsa, yakuniy testda bu ko'rsatkich 78,3 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa

dastlabki 36,7 foizlik natija 55,0 foizga yetdi. Tajriba guruhidagi o'sish 43,3 foiz punkt bo'lib, nazorat guruhidagi 18,3 foizlik o'sishdan 25,0 foiz punktga yuqori bo'ldi.

O'quvchilarning o'z fikrini dalillar asosida yozma shaklda ifodalash ko'nikmasi ham tajriba yakunida sezilarli darajada rivojlandi. Tajriba boshida o'quvchilarning 29,2 foizi o'z javoblarini kamida ikkita tegishli dalil bilan asoslay olgan bo'lsa, yakuniy bosqichda bu ko'rsatkich 73,3 foizga yetdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich 30,0 foizdan 50,8 foizgacha oshdi.


Tadqiqot natijalarini umumlashtirish uchun o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar quyidagicha ifodalandi:

Baholangan ko'nikma	Tajriba guruhi, dastlab	Tajriba guruhi, yakuniy	O'sish	Nazorat guruhi, dastlab	Nazorat guruhi, yakuniy	O'sish
Matnni umumiy tushunish	56,8%	82,7%	+25,9	57,4%	65,3%	+7,9
Dalilni aniqlash	38,3%	81,7%	+43,4	40,0%	59,2%	+19,2
Dalil va xulosani bog'lash	31,7%	75,0%	+43,3	33,3%	52,5%	+19,2
Axborot manbalarini taqqoslash	35,0%	78,3%	+43,3	36,7%	55,0%	+18,3
Dalillangan yozma javob	29,2%	73,3%	+44,1	30,0%	50,8%	+20,8

Mazkur ma'lumotlar tajriba guruhida barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy o'zgarish yuz berganini ko'rsatadi. Eng katta o'sish o'quvchilarning dalillangan yozma javob berish ko'nikmasida kuzatilib, dastlabki natijaga nisbatan 44,1 foiz punktni tashkil

etdi. Dalilni aniqlash ko'rsatkichi 43,4 foiz punktga, dalil va xulosani bog'lash hamda multimodal axborotlarni taqqoslash ko'rsatkichlari 43,3 foiz punktga oshdi.

Quyidagi grafikda tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi va keyingi umumiy natijalari ifodalanadi:



TG — tajriba guruhi, NG — nazorat guruhi

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, multimodal matnlar bilan tizimli va maqsadli ishlash o'quvchilarning dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo'la oladi. Ayniqsa, matn, jadval, diagramma va grafiklarni birgalikda tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni tekshirish, taqqoslash, baholash va dalil sifatida qo'llash qobiliyatini rivojlantirdi.

MUHOKAMA

Tajriba natijalarining tahlili multimodal matnlardan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda an'anaviy verbal matnlarga nisbatan kengroq didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatdi. Tajriba guruhida umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichining 56,8 foizdan 82,7 foizgacha oshishi, ya'ni 25,9 foiz punktik o'sish qayd etilishi o'quvchilarning matn mazmunini anglash, asosiy axborotni ajratish va o'qilgan material asosida xulosa chiqarish qobiliyatlari rivojlanganini ko'rsatadi. Nazorat guruhidagi o'sishning 7,9 foiz punkt bilan chegaralanganligi esa an'anaviy mashg'ulotlar

ham ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini, biroq multimodal yondashuvning natijasi sezilarli darajada yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

Mazkur farqni multimodal matnlarning axborotni bir nechta ifodalash kanallari orqali taqdim etishi bilan izohlash mumkin. Oddiy matnda o'quvchi asosan lingvistik belgilar tizimiga tayanadi. Multimodal matnda esa mazmun yozma bayon, raqamli ma'lumot, grafik tasvir, diagramma yoki jadval orqali parallel ravishda ifodalanadi. O'quvchi mazkur manbalarni bir-biri bilan bog'lash jarayonida ma'lumotning takrorlanishi, to'ldirilishi yoki o'zaro farq qilishi kabi jihatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'qish jarayonini passiv qabul qilishdan faol tahlil qilish jarayoniga aylantiradi.

Tajriba guruhida dalillarni aniqlash ko'rsatkichining 38,3 foizdan 81,7 foizgacha oshgani alohida e'tiborga loyiq. 43,4 foiz punktlik o'sish o'quvchilarning matndagi fakt, raqam, statistik ma'lumot va muallif fikrini farqlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanganini anglatadi. Nazorat guruhida mazkur ko'rsatkichning 19,2 foiz punktga oshgani ham ma'lum rivojlanishni ko'rsatadi, biroq tajriba guruhidagi natija undan 24,2 foiz punktga yuqori bo'ldi. Bu holat multimodal topshiriqlarda o'quvchidan dalilni shunchaki topish emas, balki uni boshqa axborot manbasi bilan tekshirish talab qilinishi bilan izohlanadi.

Masalan, matnda ma'lum bir ekologik muammo bo'yicha fikr bildirilgan bo'lsa, o'quvchi ushbu fikrni statistik diagrammadagi raqamlar bilan solishtiradi. Agar matndagi fikr diagramma ma'lumotlari bilan mos kelsa, dalilning ishonchliligi oshadi. Agar ular o'rtasida tafovut mavjud bo'lsa, o'quvchi bu tafovutning sababini izlashga majbur bo'ladi. Bunday faoliyat dalillarga asoslangan o'qishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dalil va xulosani bog'lash ko'rsatkichining 31,7 foizdan 75,0 foizgacha oshishi ham multimodal yondashuvning muhim samaralaridan biridir. Ushbu ko'nikma o'quvchining "matnda nima deyilgan?" degan savoldan "bu fikr qanday dalil bilan

asoslangan?" va "ushbu dalildan qanday xulosa chiqarish mumkin?" degan yuqori darajadagi savollarga o'tishini anglatadi. Natijada o'quvchi matnni mexanik ravishda qayta hikoya qilishdan ko'ra, undagi axborotlar o'rtasidagi sabab-oqibat, taqqoslash va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga yo'naltiriladi.

Tajriba guruhida turli axborot manbalarini taqqoslash ko'nikmasining 35,0 foizdan 78,3 foizgacha oshishi multimodal matnlarning integrativ xususiyatini tasdiqlaydi. O'quvchi matn va grafikni, jadval va diagrammani yoki xarita va izohni birgalikda tahlil qilganda, axborotning turli shakllarda qanday ifodalanganini anglaydi. Bu jarayon o'quvchida axborotlar o'rtasidagi muvofiqlik va nomuvofiqlikni aniqlash, ma'lumotlarning ishonchliligini baholash hamda eng muhim dalillarni ajratish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Eng yuqori o'sish dalillangan yozma javob berish ko'nikmasida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichning 29,2 foizdan 73,3 foizgacha oshishi 44,1 foiz punktik ijobiy dinamikani tashkil etdi. Bu natija o'quvchilar o'qigan materialini o'z so'zlari bilan ifodalashdan tashqari, o'z fikrini matn yoki vizual axborotdagi aniq dalillar bilan asoslashni o'rganganini ko'rsatadi. Bunday ko'nikma o'qish savodxonligining yuqori darajasini ifodalovchi muhim mezonlardan biridir, chunki o'quvchi faqat to'g'ri javobni topishi emas, balki nima sababdan aynan shu javobni tanlaganini asoslay olishi kerak.

Tajriba davomida o'quvchilarning javoblarini sifat jihatidan tahlil qilish ham muhim natijalarni ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda o'quvchilarning katta qismi savollarga matndan bevosita ko'chirilgan jumlar orqali javob berishga moyil bo'lgan. Yakuniy bosqichda esa tajriba guruhidagi o'quvchilar javoblarida matn, grafik va jadval ma'lumotlarini birlashtirish holatlari ko'paygan. Bu o'zgarish multimodal o'qish jarayonida o'quvchining axborotni qayta ishlash strategiyasi murakkablashganini ko'rsatadi.

Tajriba natijalarining umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, multimodal matnlarning didaktik imkoniyatlari faqat o'quv materialini qiziqarliroq taqdim etish bilan

cheklanmaydi. Ular o'quvchini dalilni izlash, dalilning manbasini aniqlash, turli axborotlarni taqqoslash, ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini tekshirish va asoslangan xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Shu jihatdan multimodal matnlar o'qish savodxonligini reproduktiv darajadan analitik va tanqidiy darajaga olib chiqishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tajriba natijalari asosida multimodal matnlar bilan ishlashning samaradorligi quyidagi mantiqiy zanjir orqali namoyon bo'ldi: o'quvchi avvalo matn va vizual manbalardan axborotni qabul qiladi, keyin turli axborot birliklarini o'zaro taqqoslaydi, undan keyin dalillarni ajratadi, dalil va xulosa o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydi va yakunda o'z fikrini aniq dalillar bilan asoslaydi. Demak, multimodal matnlar o'qish savodxonligining alohida ko'nikmalarini emas, balki ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi.

Umuman, tajriba natijalarida tajriba guruhining barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhidan yuqori natija qayd etgani multimodal matnlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini ko'rsatadi. Ayniqsa, dalillarni aniqlashda 43,4 foiz punkt, dalil va xulosani bog'lashda 43,3 foiz punkt, axborot manbalarini taqqoslashda 43,3 foiz punkt va dalillangan yozma javob berishda 44,1 foiz punktlik o'sish kuzatilgani multimodal ta'limning dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini shakllantirishdagi yuqori didaktik salohiyatini tasdiqlaydi. Ijobiy natijalar multimodal matnlarni o'quv jarayoniga tizimli ravishda kiritish o'quvchilarning axborotni tushunish, tahlil qilish, baholash va dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali metodik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari multimodal matnlarning dalillarga asoslangan o'qish savodxonligini rivojlantirishda yuqori didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatdi. Matn, jadval, diagramma, grafik, xarita va infografikalarni o'zaro bog'lab tahlil qilish

o'quvchilarning axborotni chuqurroq anglash, dalillarni aniqlash, turli manbalarni taqqoslash va dalil asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Tajriba guruhida o'quvchilarning umumiy natijasi 56,8 foizdan 82,7 foizgacha oshgani multimodal yondashuv samaradorligini ko'rsatdi. Ayniqsa, dalillangan yozma javob berish ko'nikmasidagi 44,1 foiz punktlik o'sish muhim natija sifatida qayd etildi. Multimodal matnlarni maqsadli va tizimli qo'llash o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, axborotni baholashi va mustaqil fikrini dalillar bilan asoslash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. 2nd ed. London: Routledge, 2006.
2. Jewitt C. Multimodality and Literacy in School Classrooms. Review of Research in Education, 2008, Vol. 32, pp. 241–267.
3. Serafini F. Reading the Visual: An Introduction to Teaching Multimodal Literacy. New York: Teachers College Press, 2014.
4. New London Group. A Pedagogy of Multiliteracies: Designing Social Futures. Harvard Educational Review, 1996, Vol. 66, No. 1, pp. 60–92.
5. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. Paris: OECD Publishing, 2019.
6. Граник Г.Г., Бондаренко С.М. Как учить работать с книгой. Москва: Знание, 1995.
7. Жўраев Р.Х. Таълимда замонавий педагогик технологиялар ва улардан фойдаланиш масалалари. Тошкент: Фан, 2005.
8. Турғунов С.Т. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Тошкент: Тафаккур, 2012.